



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil “30” aprel

BUYRUQ № 48

Toshkent sh.

**Asosiy demografik ko‘rsatkichlarni shakllantirishda fuqarolik holati
dalolatnomalari va statistik hisob talonlari ma’lumotlarini kodlashtirish
bo‘yicha qo‘llanmani tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, asosiy demografik ko‘rsatkichlarni shakllantirishda fuqarolik holati dalolatnomalari va statistik hisob talonlari ma’lumotlarini kodlashtirish bo‘yicha qo‘llanmani takomillashtirish maqsadida, **buyuraman:**

1. “Asosiy demografik ko‘rsatkichlarni shakllantirishda fuqarolik holati dalolatnomalari va statistik hisob talonlari ma’lumotlarini kodlashtirish bo‘yicha qo‘llanma” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Davlat statistika qo‘mitasining 2020- yil 4- maydagi “Asosiy demografik ko‘rsatkichlarni shakllantirishda fuqarolik holati dalolatnomalari va statistik hisob talonlari ma’lumotlarini kodlashtirish bo‘yicha qo‘llanma”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi 12- sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov